

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti



"KELISHILDI"

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsialar vazirligi



KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA

BAHOLASH MEZONI

KIRISH IMTIHONLARIDA "O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI"
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Toshkent – 2025

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'qувслубиј Kengashining 2025-yil 21-iyundagi 4-сонли bayonnomаси bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

- U.K.Ametova - O'zMU O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
G.S.Keldiyorova - O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

- A.A.Ubaydullayev - O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
A.Ulug'ov - Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.n.

KIRISH

Mazkur dastur ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati sust bo'lgan abituriyentlar uchun O'zbekiston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan mакtablar o'qув dasturiga mos tarzda tuzilgan.

O'zbek tilining grammatic xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari va o'zbek adabiyotining asosiy tamoyillari, muallif va asarlari umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi darsliklarida yoritilgan.

Til va jamiyat, fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, stilistika kabi bo'limlar hamda adabiyot, so'z san'ati, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, xalq og'zaki ijodi, janrlari, uyg'onish davri adabiyoti, yangi davr o'zbek adabiyoti, ma'rifatparvarlik adabiyoti, jadid adabiyoti, sho'rolar davri adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti bo'yicha berilgan mavzular o'qувчи tafakkurini o'stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu dastur bo'lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, til va adabiyot turkumidagi alohida fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko'zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatları uchun puxta nazariy asos yaratish; til va adabiyot masalalarini talqin qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda o'zbek tili grammaticasi asoslarini o'zlashtirish, adabiyot fani doirasidagi mavzularni, yozuvchi hayoti va ijodiga doim ma'lumotlarni o'rganish, badiiy san'at turlarini bilish, tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish vazifalari ko'zda tutilgan.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

"O'zbek tili va adabiyoti" (ko'zi ojizlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko'ra o'zbek tili va adabiyoti fanlarining har biriga talablar qo'yiladi:

O'zbek tili fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

- adabiy tilning fonetik, leksik-semantik, grammatic me'yorlari;
- orfografiyaga, orfoepiyaning nazariy masalalari asosida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini;
- lotin yozuvni asosidagi yangi o'zbek alifbosini qoidalarini;
- tilshunoslikning har bir bo'limlari bo'yicha umumiyl o'rta va o'rta maxsus ta'lim dasturlariga yaqinlashtirilgan holdagi ma'lumotlarni;
- grammatic tahlil qilish ko'nikmasini bilishi kerak.

O'zbek adabiyoti bo'yicha abituriyent:

- o'zbek adabiyotining asosiy nazariy tamoyillari;
- adabiyot tarixida sezilarli iz qoldirgan mashhur adiblar hayoti;
- milliy adabiyot tarixidan o'rinn olgan asarlari va ularning tahlili;
- zamonaviy adabiyotga tegishli ayrim ijodkorlar faoliyatidan xabardor bo'lishlari kerak.

Fanning mazmuni

O'zbek tili

Til va jamiyat. Tilning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'mni. Tilning aloqa-munosabat vositasini sifatidagi ahamiyati. Dunyo tillari. Til oilalari.

Fonetika. Nutq tovushlari va ularning tasnifi. "Fonema", "urg'u", "bo'g'in", "takt" tushunchalari. Fonetik o'zgarishlar: tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi.

Orfoepiya. Talaffuz me'yorlari. Orfoepiya me'yorlari asosidagi tovush o'zgarishlar: assimilyasiya, dissimilyasiya, metateza.

Orsografiya. Imlo qoidalari. Fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakliy yozuv qoidalari.

Grafika. Tovush va harf munosabati. Yozuv tarixi. Lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alisbosi.

Leksikologiya. So'z va ma'no. Lug'aviy ma'no va grammatick ma'no. O'z ma'no va ko'chma ma'no. Bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar. So'z va leksema. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari: shakldoshlik, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, paronimlik hodisalar.

Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi. Tarixiy so'zlar, arxaizmlar, neologizmlar.

O'zbek tilining lug'at boyligi. Qo'llanish doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi o'mni. Hududiy chegaralangan so'zlar: lahja, sheva tushunchalari. Ijtimoiy chegaralangan so'zlar: argo va jargonlar. Termin (atama)lar. Terminologiya (atamashunoslik).

Lug'at boyligining ortib borish usullari: ichki manba va tashqi manba. Olinma so'zlar.

Barqaror birikmalar: maqlol-matallar, iboralar, hikmatli so'zlar (aforizmlar).

Leksikografiya. Lug'at va uning turlari. Ensiklopedik lug'atlar. Filologik lug'atlar.

Morfemika. So'z tarkibi. O'zak morfema va affiksal morfema. Affiksal morfema (qo'shimchalar)ning vazifasiga ko'ra turlari: so'z yasovchi va shakl yasovchi (lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi) qo'shimchalar.

Grammatika: morfologiya va sintaksis. Morfologiya – so'z turkumlari, grammatick shakl, grammatick ma'no haqidagi bo'lim sifatida.

So'z turkumlari. To'plam va tasnif. Mustaqil so'z turkumlari. Ot va uning morfologik xususiyatlari. Otlarning lug'aviy shakllari: ko'plik, kichraytirish-erkalash shakllari. Otlarning munosabat shakllari: kelishik va egalik qo'shimchalar.

Sifat. Sifat darajalari. Asliy sifat va nisbiy sifat. Tub va yasama sifatlar.

Son. Miqdor son va tartib son. Hisob (o'lchov) so'zları.

Olmoshi. Olmoshning ma'no turlari. Kishilik olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlari. O'zlik olmoshi. So'roq olmoshlari. Belgilash-jamlash olmoshlari. Bo'lishsizlik olmoshlari. Gumon olmoshlari.

Ismlar. So'zlarni turkumlarga ajratish tarixi. Ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so'zlarining ismlik xususiyatlari. Ismlarning munosabat shakllari.

Fe'l. Fe'llarning ma'no turlari: harakat va holat fe'llari. Tuslanish. Fe'llarda zamon, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik tushunchalarining ifodalansishi. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'l nisbatlari. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (harakat tarzi shakllari).

Ravish. Ravishning ma'no turlari. Ravishlarda kelishik va egalik shakllarining yaxlitlitib qolishi.

Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Undov so'zlar. Taqlid so'zlar. Modal so'zlar.

Sintaksis. So'z birikmasi. So'z birikmasining bog'lanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. So'z birikmasi turlari: otli birikma va fe'lli birikma.

Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: dark gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap.

Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra tasnifi: his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gap.

Gapning modallikka (voqelikka munosabatiga) ko'ra tasnifi: tasdiq gap va inkor gap.

Gapning tuzilishiga ko'ra tasnifi: sodda gap va qo'shma gap.

Sodda gap sintaksisi. Gap bo'laklari: gapning bosh bo'laklari. Kesim: ot-kesim va fe'l-kesim. Murakkab ot-kesim. Bog'lama. Murakkab ot-kesim va ega o'rtasida tirening ishlatilishi. Ega. Ega ishtirokiga ko'ra sodda gap tasnifi: egasi mavjud gaplar va egasi mavjud bo'lmagan gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasi (shaxsi) topilmas gaplar. So'z-gap. Atov gap.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gapning uyushiq bo'laklari: uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Uyushmagan aniqlovchi.

Gapning ajratilgan bo'laklari. Ajratilgan kesim, ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gap bo'laklari bilan grammatick munosabatga kirishmaydigan bo'laklar: kiritma, kiritma gap, undalma.

Sodda yig'iq gap. Sodda yoyiq gap. To'liq gap va to'liqsiz gap. Gap bo'laklari tartibi. Inversiya.

Qo'shma gap sintaksisi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar.

Qo'shma gapning tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar xarakteriga ko'ra turlari: bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap. Havola bo'lakli gap. Qo'shma gapning sodda gap bilan ma'nodoshligi.

Uslubiyat. Nutq uslublari: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslub.

Punktuaatsiya. Tinish belgilaringin qo'llanishi.

O'zbek adabiyoti

Qadimgi adabiy yodgorliklar. "Avesto" adabiy manba sifatida. O'rjun-Enasoy obidalar. "Devonu lug'at-t-turk"dagi adabiy namunalar. "Qutadg'u bilig" dostonining obrazlar tizimi. "Hibatu-l-haqoqiy" asarining ma'rifiy asoslari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va hikmat janri taraqqiyoti.

Temuriylar davri adabiyoti. Temuriylar davri adabiyotining taraqqiyot omillari. Gadoiy, Atoyi, Lutfiy va Sakkokiy she'riyati.

Navoiy tarjimayi holining adabiy manbalari. "Xazoyinu-l-maoni"ning tarkibi. Navoiy ijodida lirik janrlar. "Xamsa"chilik an'analari va Navoiy "Xamsa"si.

XVI-XIX asrlar adabiyoti. Xonliklar davri adabiyotining xususiyatlari. Bobur badiiy merosi, "Boburnoma". Ilmiy merosi. Qul Ubaydiy ijodi. Mashrab sheriysi. "Mabdai nur" muallifligi masalasi. Huvaydo g'azallari poetikasi. Amir Umarxon adabiy muhiti ijodkorlari. Nodira ijodi. Ogahiy she'riyatining obrazlar tizimi. Muqimiy va Furqat ijodi. Avaz O'tar asarlari.

Yangi o'zbek (milliy uyg'onish) adabiyoti. Jadid tushunchasi, maqsad, vazifalari, o'rganilishi, muammolari. Milliy matbuot. Milliy teatr, badiiy adabiyot, ma'rifiy-ijtimoiy she'riyat (A.Avloniy, Hamza, So'fizoda, A.Qodiriy) va publisistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Hoji Muin).

Yangi o'zbek adabiyoti. Sho'ro davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Zulfiya, M.Shayxzoda, Mirtemir kabi shoir va yozuvchilar shu davr adabiyotining namoyandalar sifatida.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti. Mustaqillik tuyg'usi o'zbek adabiyotida milliy o'zlikni anglashga tashnalik sifatida namoyon bo'lganligi. Istiqlol davri o'zbek adabiyotiga Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, E.Vohidov, A.Orlov, O.Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shakhat Rahmon, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul va boshqa ijodkorlar qo'shgan hissalar xususida. Ular ijodidagi o'ziga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar.

IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ko'zi ojizlar uchun ijodiy imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtadan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 ("a'lo")ga baholanishi uchun:

- mavzuning mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lishi, ijodiy mulohazalar asosida yoritishi;
- mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi;
- fakt va misollardan o'rinci foydalanib to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;
- talab darajasidagi filologik va ijtimoiy-siyosiy bilimga ega bo'lishi;
- nutqi ravon bo'lib, fikrini adabiy tilda ta'sirchan ifodalay bilishi zarur.

2. Abituriyentning javobi 4 ("yaxshi")ga baholanishi uchun:

- mavzu mohiyatini atroficha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi;
- mustaqil fikrlashga intilishi;
- fikrlarini izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- nutqida mantiqiylik, raxonlik, obrazlilik ko'zga tashlanib turishi;
- manbalardan, fakt va misollardan o'rinci foydalana olishi;
- filologik va ijtimoiy-siyosiy savodxonligi yetarli bo'lishi;
- fikrini adabiy tilda to'g'ri, maqsadga muvosiq ifodalay bilishi lozim.

3. Abituriyentning javobi 3 ("qoniqarli")ga baholanishi uchun:

- mavzu mohiyatini chuqurroq ochib berishi, notiqlik qobiliyatni sezilib turishi;

- so'z san'ati va nutq madaniyi haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo'lishi;
- so'zni bir qadar nozikroq idrok eta bilishi, fikrni izchil ifodalashga intilishi;
- fikr bayoni va uslubi ravon, mantiqiy bo'lishi;
- fakt va misollardan to'g'ri foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- fikrini adabiy tilda ifodalashga intilishi kerak.

4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 ("qoniqarsiz")ga baholanadi:

- mavzu mohiyati yetarli darajada ochilmasa;
- tilshunoslik bo'limlari va adabiyot haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmasa;
- fikrni ifodalashda g'alizlik uchrashi;
- abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo'lsa;
- fikrlash doirasasi tor bo'lsa;
- fikr bayoni izchil bo'lmasa;
- nutqida ravonlik, mantiqiy muvosiqlik kuzatilmasa.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2025-2026 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

O'zbek tili va adabiyoti fanidan sinovlar mavjud barcha turdag'i ta'lim yo'naliishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon natijalarini uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

O'zbek tili va adabiyoti fanidan sinovlar mavjud barcha turdag'i ta'lim yo'naliishlar bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazgan olyi ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtiroyida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.